www.uzresearchers.com
THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT
REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
Volume: 2 Issue: 5

# BALIQCHI TUMANINING QISHLOQ XO'JALIGI. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK

**Xusanova Mashxura Erkinjon qizi**
*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Baliqchi tumaning qishloq xo'jaligi, dehqochiligi, chorvachiligi chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi kabi ma'lumotlar keng yoritilgan. Shu bilan birga qishloq ho'jaligida band aholi haqidagi ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Baliqchi tumani, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qora mollar, mlrd.so'm, mahsulot hajmi, o'sish surati, band aholi.*

***Аннотация:** В данной статье широко освещены сведения о сельском хозяйстве, фермерстве, животноводстве и фермерском хозяйстве Балыкчинского района, объемах продукции, картинах роста и доле скота и птицы в ряде категорий хозяйств. При этом была затронута и информация о численности населения, занятого в сельском хозяйстве.*

***Ключевые слова:** Балыкчинский район, сельское хозяйство, земледелие, животноводство, черный скот, млрд сумов, объем производства, картина роста, занятое население.*

***Abstract:** In this article, information on the agriculture, farming, livestock and farm economy of Balıkchi district, the volume of products, growth pictures and the share of livestock and poultry in the number of farm categories are widely covered. At the same time, the information about the population employed in agriculture was also touched upon.*

***Key words:** Balıkchi district, agriculture, farming, animal husbandry, black cattle, billion soums, volume of production, picture of growth, employed population.*

**Kirish:** Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko'paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g'allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi.

Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 6-sentabr kunidagi qishloq xo'jaligini 2020-2023 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqilgan. Bu iqtisodiyotimizning asosiy o'sish nuqtasi, "drayveri" bo'ldi. Mingminglab ish joylari yaratildi, odamlarning daromadi oshdi[1].

**Asosiy qism.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Baliqchi tumanida 2022- yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 675,0 mlrd so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan

xizmatlar 2 666,3 mlrd so'mni (100,9 %), o'rmon xo'jaligi 0,1 mlrd so'mni (125,0 %), baliqchilik xo'jaligi 8,7 mlrd so'mni (127,0 %) tashkil qildi. Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 49,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 46,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 4,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.[2]

**Dehqonchilik.** Baliqchi tumanida 2022- yilda ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 790,1 mlrd so'mni yoki 2021- yilga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 67,9 % ni tashkil qildi.

**2-jadval**

**Baliqchi tumanida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish**

| **Dehqonchilik mahsulotlari** | **2020- yil** | | **2021- yil** | | **2022- yil** | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ***tonna*** | ***o'sish sur'ati,%*** | ***tonna*** | ***o'sish sur'ati, %*** | ***tonna*** | ***o'sish sur'ati, %*** |
| **Don va dukkakli don ekinlari - jami** | **60 552** | **104,4** | **57 603** | **91,5** | **63 769** | **110,7** |
| **shundan, boshoqli don ekinlari** | **50 636** | **106,6** | **48 990** | **95,1** | **50 774** | **103,6** |
| **Paxta xomashyosi** | **36 551** | **109,7** | **34 956** | **97,9** | **37 657** | **107,7** |
| **Kartoshka** | **29 588** | **90,5** | **30 934** | **104,6** | **32 550** | **105,2** |
| **Sabzavotlar - jami** | **119 076** | **106,9** | **103 818** | **87,2** | **113 271** | **109,1** |
| **Oziqbop poliz - jami** | **27 389** | **80,0** | **41 484** | **151,5** | **42 802** | **103,2** |
| **Mevalar va rezavorlar - jami** | **39 984** | **91,0** | **39 863** | **99,7** | **36 790** | **92,3** |
| **Uzum jami** | **3 096** | **108,3** | **3 212** | **103,7** | **3 377** | **105,1** |

**Chorvachilik**. Baliqchi tumanida 2022- yilda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 847,6 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 99,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi. 2023-yilning 1-yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 85 044 boshga (103.6%ni), shu jumladan sigirlar 29 218 boshga (103.5%ni), qo‘y va echkilar 75 094 boshga (103.1%ni), parrandalar 498 276 boshga (63.9%ni) tashkil qildi. Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 94.0% ni, fermer xo‘jaliklarida 5.8% ni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi 0.2% ni tashkil etdi.

2-rasm




Baliqchi tumanida 2022- yilda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi (2-rasm)

**Xulosa:** Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari ko’rib chiqilishi, budjet mablag'larining asosiy qismini yerlarning unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash asosiy maqsadga aylantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi va shunday ham qilib kelinmoqda. Ilmiy-tadqiqot institutlarida ertapishar mahsulot turlari va hududlar iqlimiga mos chorva zotlarini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ishlari ham boshlandi va davom etmoqda. Umuman olganda, yangi strategiya qishloq xo'jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilib, ilmiy asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksportni ko'paytirish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulotlar hajmini bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baliqchi tumanining 2020-2022- yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA.
2. Baliqchi tumani statistika boshqarmasi.2022-yil 1-yanvar.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O’quv qo’llanma. –T., 2002.
4. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. Вестник Таджикского национального университета, (3-6), 237-241.
5. Давлатова, М. (2020). FE'LLARNING ASPEKTIK VA LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
6. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. Academicia Globe: Inderscience Research, 2 (05), 475–479. VOLUME03 ISSUE06 PAGES, 39, 47.
7. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. Интернаука, (9-2), 76-78.
8. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the English renaissance (XVI c.). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 949-957.
9. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning English with the help of songs. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 578-581.
10. Давлатова, М. Х. (2021). The Expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).
11. Давлатова, М. Ҳ. (2021). Результативликнинг аспектуал тадқиқотлар доирасида ўрганилиши. Scientific progress, 2(2), 1678-1683.
12. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. Cross-Cultural Studies: Education and Science, 5(1), 61-67.
13. Давлатова, М. (2020). Aspectual and lexico-semantic classification of verbs. Сўз санъати халқаро журнали, 1, 2020.
14. Давлатова, М. Х. (2018). Работа над видеотекстом на занятиях английского языка. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 242-246.
15. Hasanovna, D. M. (2022). On the interrelationship of resultive and causative meanings. World Bulletin of Public Health, 9, 212-215.
16. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. Open Access Repository, 8(2), 116-121.